

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSİYALAR VA MOLIYAVIY
RIVOJLANISHNI OLIY MUHANDISLIK MAKTABLARI BILAN
INTEGRATSIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI”

TEZISLAR TO‘PLAMI

2024-yil 1-avgust–27-sentabr



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 62 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 30-iyulda ruxsat etildi.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Nosir Mahmudov, i.f.n. Toshkent davlat iqtisodiot universiteti professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Nasir Mahmudov, I.f.n. Professor of Tashkent State University of Economics

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Zamonaviy agrotexnologiyalar hosildorlik garovi	15
K.A.Sharipov, V.A.Karimov	
Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish. toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va xorijiy davlatlar tajribasi.....	19
S. M. Mirzaliyev	
Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikini oshirish masalalari.....	24
Adilov Mirkomil Miralimovich	
Yoshlar turizmi bilan bog'liq tushunchalarni o'rganishning nazariy jihatlarini.....	27
Allayor Norboev Ismoilovich	
The importance of risk management to ensuring the stability of commercial banks	30
Abdusalomov Jahangir Oktam ugli	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobining asoslari	33
Abduraxmanov Otabek Patidinovich	
Inson kapitalini boshqarishda inteluktual salohiyatni iqtisodiy bilimlar bilan mustahkamlash dolzarbligi	36
Kurbanbayeva Sevara Marat qizi	
Reducing corruption through tax mechanisms	39
Musayeva K.Y	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish jarayonlari tahlili	42
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
Davlat budjeti xarajatlarining samaradorlik indikatorlaridan samarali foydalanish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari	45
S.M.Xolxo'jayev	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyati tahlili	47
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Issues of greening the economy in ensuring sustainable economic growth.....	51
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
Reducing corruption through tax mechanisms	54
Musayeva K.Y	
Пути повышения конкурентоспособности предприятия	56
Азларова Муштарийбегим Абдор кизи	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ko'rsatkichlarning ijtimoiy omillari va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish yo'nalishlari	59
S.M. Xolxo'jayev	



INSON KAPILATINI BOSHQARISHDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI IQTISODIY BILIMLAR BILAN MUSTAHKAMLASH DOLZARBLIGI

ORCID: 0000-0003-4849-1200

Kurbanbayeva Sevara Marat qiziToshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Mehnat iqtisodiyoti” kafedrası (PhD) tayanch doktoranti

Annotatsiya: Inson kapitali jamiyatning iqtisodiy o'sish va farovonlikka erishishidagi eng muhim omillardan biridir. Ushbu teziz inson kapitalini boshqarishda intellektual salohiyat va iqtisodiy bilimlarning roli va ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda meta-analiz, adabiyotlar sharhi usuli foylanilib, bir necha xorij va O'zbekiston olimlarining inson kapitali, intellektual salohiyat va iqtisodiy bilimlarga doir nazariyalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, intellektual salohiyat, iqtisodiy bilim, boshqaruv.

Abstract: Human capital is one of the most important factors in achieving economic growth and prosperity of society. This study analyzes the role and importance of intellectual capacity and economic knowledge in human capital management. The research used the method of meta-analysis, literature review, and studied the theories of several foreign and Uzbek scientists on human capital, intellectual potential, and economic knowledge.

Key words: Human capital, intellectual potential, economic knowledge, management.

Аннотация: Человеческий капитал является одним из важнейших факторов достижения экономического роста и процветания общества. В этом исследовании анализируется роль и значение интеллектуального потенциала и экономических знаний в управлении человеческим капиталом. В исследовании использовался метод мета-анализа, обзор литературы, а также изучались теории ряда зарубежных и узбекских ученых о человеческом капитале, интеллектуальном потенциале и экономических знаниях.

Ключевые слова: Человеческий капитал, интеллектуальный потенциал, экономические знания, менеджмент.

Iqtisodiy bilimlarning inson kapitalini rivojlantirish va boshqarishda ahamiyati katta. Iqtisodiy bilimlar insonlarga resurslardan samarali foydalanish, muammolarni tahlil qilish va oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu bilimlar orqali shaxslar va tashkilotlar o'z faoliyatlarini rejalashtiradi va boshqaradi. Shu qatorda iqtisodiy bilimlar moliyaviy savodxonlikni oshiradi. Shaxslar moliyaviy rejalar tuzish, investitsiyalarni baholash, budjet tuzish va moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarishda iqtisodiy bilimlardan foydalanadilar.


Iqtisodiy bilimlar insonlarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi. Ish beruvchilar malakali va iqtisodiy bilimlarga ega kadrlarni qidiradilar, chunki bunday kadrlar samarali ishlash va tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish qobiliyatiga ega bo'ladilar hamda innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning rivojlanishiga turtki beradi. Innovatsion g'oyalar iqtisodiy tushunchalar va tamoyillar asosida amalga oshiriladi, bu esa iqtisodiy o'sishni va rivojlanishni tezlashtiradi. Yana bir muhim ahamiyati davlat siyosatidagi iqtisodiy bilimlar bo'lib, ular davlat siyosatini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy siyosat, fiskal va monetar siyosatlar orqali davlatlar iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlar jamiyatning iqtisodiy muammolarini aniqlash va ularga yechim topishda yordam beradi.

Insonlar o'z moliyaviy holatini boshqarish, investitsiyalar qilish va iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlash orqali shaxsiy va kasbiy o'sishga erishadilar. Iqtisodiy bilimlar shaxslar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Iqtisodiy bilimlar global iqtisodiy jarayonlarni tushunish va ularda faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu bilimlar orqali shaxslar va tashkilotlar o'z faoliyatlarini samarali rejalashtiradi, boshqaradi va iqtisodiy muvaffaqiyatga erishadi.

Inson kapitali va intellektual salohiyatda iqtisodiy bilimlarga bog'liqligini o'rganishdan oldin ularni alohida tahlil qilamiz. Gary S. Becker tomonidan ta'riflanganidek, inson kapitali – bu insonlarning ta'lim, o'qitish va tajriba orqali o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida orttirilgan qobiliyatlar yig'indisidir. Bu qobiliyatlar esa iqtisodiy o'sish va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Hamda Schultz T. W. "Inson kapitali" tushunchasini kiritib, uning ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarida amalga oshirilgan investitsiyalar orqali shakllanishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bu investitsiyalar insonlarning ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradi. Ijtimoiy nuqtai nazardan esa inson kapitali insonning shaxsiy fazilatlarini, ta'lim darajasi, malaka va tajribasi, shuningdek, sog'liq holati va innovatsion qobiliyatlarining yig'indisidir. Bu komponentlar birgalikda insonning jamiyatdagi muvaffaqiyatini va farovonligini belgilaydi. BMT Inson Rivojlanishi Indeksi (HDI) ta'rifiga ko'ra esa inson kapitali – bu insonlarning ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy imkoniyatlari bilan bog'liq ko'rsatkichlar yig'indisi bo'lib, ularning hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda esa tajribada inson kapitali – bu korxonalar va tashkilotlar uchun eng qimmatli resurs bo'lib, ularning muvaffaqiyatini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Bu resurs ta'lim, trening va tajriba orqali rivojlanadi va tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi.

Inson kapitali tushunchasi turli darajalarda o'rganilib, shu qatorda davlat miqyosida uning siyosati va tizimidan kelib chiqqan holda quyidagicha ta'rif bersa ham bo'ladi. Inson kapitali – bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan resursdir. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozorini rivojlantirish siyosatlarini orqali inson kapitali yuksaladi. Ushbu ta'riflar inson kapitalining muhimligini turli nuqtai nazarlardan tushunishga yordam beradi. Inson kapitali – bu mamlakatning iqtisodiy o'sishi va farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan asosiy resurslardan biridir.

Intellektual salohiyat – bu shaxsning bilim, aql-idrok, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, ijodiy tafakkur, yangilik kiritish qobiliyati va o'rganish qobiliyatlari yig'indisidir. Bu salohiyat insonning hayotdagi muvaffaqiyati, kasbiy o'sishi va iqtisodiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida intellektual salohiyatning asosiy jihatlari keltirilgan:



1-rasm. Intellektual salohiyat asosiy jihatlari.

Bilim- shaxsning umumiy bilim darajasi, ya'ni u turli sohalar haqida qancha va qanday bilimga ega ekanligi. Bu nafaqat akademik bilimlarni, balki kundalik hayotga oid bilimlarni ham o'z ichiga oladi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatlari - muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda mantiqiy va tizimli yondashuv. Bu qobiliyat shaxsning analitik fikrlashi va qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ijodiy tafakkur – yangi va innovatsion g'oyalarni yaratish, muammolarga yangi usulda yondashish qobiliyati. Ijodiy tafakkur kashfiyotlar va innovatsiyalar uchun asos bo'ladi.


O'rganish qobiliyatlari - yangi bilim va ko'nikmalarni tez va samarali o'zlashtirish qobiliyati. Bu qobiliyat shaxsning yangi vaziyatlarga moslashishi va doimiy ravishda rivojlanishi uchun zarur.

Analitik qobiliyatlar - murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, ulardan foydali xulosalar chiqarish va ularga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyati.

Yangilik kiritish qobiliyati - shaxsning mavjud bilim va tajribalardan foydalanib, yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlar yaratish qobiliyati. Bu qobiliyat innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega.

Intellektual salohiyat shaxsning muvaffaqiyati va jamiyatning rivojlanishi uchun muhim resursdir. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish inson kapitalini yuksaltirish va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shish uchun zarurdir. Bundan ko'rini turibiki, iqtisodiy bilim inson kapitali va intellektual salohiyat tushunchalarini uzviy bog'liq bo'lib u davlat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb qiladi.

Inson kapitalini boshqarish – bu tashkilotlar va davlatlar uchun inson resurslarini rivojlantirish va samarali foydalanish jarayonlarini rejalashtirish va amalga oshirishdir. Inson kapitalini boshqarish quyidagi asosiy elementlardan iborat:



2-rasm. Inson kapitalini boshqarishning asosiy elementlari.

Inson kapitalini boshqarish orqali davlatlar va tashkilotlar o'z resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jamiyatning farovonligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayonning samaradorligi ta'lim, sog'liqni saqlash, innovatsiya va ijtimoiy himoya kabi sohalarda olib boriladigan tizimli va kompleks chora-tadbirlar bilan bog'liqdir.

Hulosa qilib aytganda, inson kapitalining rivojlanishi, yuqori sifatli ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy ta'lim dasturlari, uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash kurslari, insonlarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi. Profilaktik va davolash xizmatlarining sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali inson kapitalining salomatlik jihatida rivojlanadi. Innovatsion muhit yaratish va yangi texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning asosidir. Ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu tizimlar aholining farovonligini oshiradi va xavfsizlik tarmoqlarini mustahkamlaydi. Ish o'rinlari yaratish va mehnat bozorining talablariga mos kadrlar tayyorlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning huquqlarini himoya qilish va ularning samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

Xodimlarni rag'batlantirish va mukofotlash tizimlarini rivojlantirish, ularning mehnat samaradorligini oshiradi. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va kadrlar rivoji bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish, inson kapitalining rivojlanishini ta'minlaydi. Inson kapitalini boshqarishning samaradorligi, iqtisodiy bilimlar va intellektual salohiyatni rivojlantirish orqali oshiriladi.

Bu jarayonning muvaffaqiyati ta'lim, sog'liqni saqlash, innovatsiya va ijtimoiy himoya kabi sohalarda tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Natijada, davlatlar va tashkilotlar o'z resurslaridan samarali foydalanib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi va jamiyatning farovonligini oshiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. (1997). O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston.
2. Qodirov K. (2010). Inson kapitali va iqtisodiy o'sish. Toshkent: O'zbekiston.
3. Norqulova, G. (2015). Innovatsion rivojlanish: intellektual salohiyat va iqtisodiy taraqqiyot. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
4. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press.
5. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. American Economic Review, 51(1), 1-17.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

